

UDK: 796.332(575.1)

JAMIYATNING IJTIMOIIY-MADANIY RIVOJLANISHIDA FUTBOL FENOMENINING O'RNI VA AHAMIYATI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21287188>

Irmatov Dilyor Yunusbekovich

Farg'ona davlat universiteti falsafa kafedrası mustaqil izlanuvchisi

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ФЕНОМЕНА ФУТБОЛА В СОЦИОКУЛЬТУРНОМ РАЗВИТИИ ОБЩЕСТВА

THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF THE FOOTBALL PHENOMENON IN THE SOCIOCULTURAL DEVELOPMENT OF SOCIETY

Annotatsiya

Maqolada futbolning jamiyatning ijtimoiy-madaniy rivojlanishidagi o'рни, uning insonlarni birlashtiruvchi omil sifatidagi ahamiyati, o'zbek futbolini rivojlantirish yo'nalishlari hamda futbolchilarning intellektual salohiyati va ijtimoiy moslashuvini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy futbolning ilm-fan bilan integratsiyasi va tarbiyaviy ahamiyati tahlil qilingan.

Аннотация

В статье раскрываются роль футбола в социокультурном развитии общества, его значение как объединяющего фактора, основные направления развития узбекского футбола, а также вопросы формирования интеллектуального потенциала футболистов и их социальной адаптации. Особое внимание уделено интеграции науки и спорта, а также воспитательной функции современного футбола.

Abstract

The article examines the role of football in the sociocultural development of society, emphasizing its function as a unifying force. It analyzes the development of Uzbek football, the enhancement of football players' intellectual potential and social adaptation, as well as the integration of science and sport and the educational significance of modern football.

Kalit so'zlar

futbol, ijtimoiy-madaniy rivojlanish, intellektual futbol, globallashuv, futbolchi, sog'lom turmush tarzi, ijtimoiy moslashuv, sport.

Ключевые слова

футбол, социокультурное развитие, интеллектуальный футбол, глобализация, футболисты, здоровый образ жизни, социальная адаптация, спорт.

Keywords

football, sociocultural development, intellectual football, globalization, football players, healthy lifestyle, social adaptation, sport.

Sport jamiyatda odamlarni o'zaro bog'laydigan biriktiruvchi to'qima kabi jamoani shakllantirish, odamlarni birlashtiruvchi vosita hisoblanadi. Shu qatori futbol ham jamiyat hayotiga eng yaqin sport turi sifatida ko'plab sohalar unga bog'liq holda rivojlanmoqda.

Maydonda bo'lgan kabi jamiyat hayotida ham barcha insonlar o'z pozitsiyalarini himoya qiladilar. Yangi do'stlar bilan tanishish va mustahkam aloqalarni o'rnatishning ajoyib usuli. Uzoq yillar futbolning jamiyatdagi o'rnini tadqiq qilgan olim Maykl Ostin o'z asarida "O'tgan qirq yil ichida futbol Amerikaning sevimli o'yini sifatida beysboldan o'zib ketdi. Mazkur o'yin milliy madaniyatimiz institutiga aylandi: Superkubok milliy bayram sifatida qabul qilingan va har yili o'yin "Shukronalik kuni"ni nishonlashimiz busiz to'liq bo'lmaydi. Sport o'rta maktablar, davlat va xususiy universitetlarga katta daromad keltiradi, chunki tomoshabinlar noyob hamda bayramona ijtimoiy sahnadan zavqlanadilar

Futbol insonlarning yoshi, millati, irqi, jinsi, madaniyati va ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar, birlashtiruvchi kuch hisoblanib, insonlarni jamiyatda bir maqsad ostida birlashtirishning boshqa sohalarda uchramaydigan va o'ziga xos usullarini taqdim etadi. "Futbol hamma joyda mavjud va zamonaviy hayotning doimiy qurolidir. U sportdan ko'ra ko'proq madaniyatda namoyon bo'ladi". Masalan, "Instagram" ijtimoiy tarmog'i asosan, rasmlar joylashtirishga mo'ljallangan va u yerda shou-biznesning mashhur vakillari o'z rasmlarini ulashadi. Mazkur ijtimoiy tarmoqda bugungi kunda eng ko'p obunachisiga ega bo'lgan shaxs Krishtianu Ronaldudur. Shu bilan birga, ushbu ijtimoiy tarmoqning kuchli o'ntaligida Ronaldudan tashqari Messi va Neymar kabi futbol yulduzlarini uchratish mumkin. 2015 yildan keyin Yevropa jamoalarining braziliyalik futbolchilarni xarid qilishga bo'lgan xohishlari keskin kamayib ketdi. Yevropaning nomdor klublari buning sababi sifatida braziliyalik futbolchilarning o'zlari faoliyat olib borayotgan jamoalarning ichki tartib-intizomiga bo'ysunmasliklari, milliy qadriyatlar va urf-odatlarini rad etishlari, o'zlariga yuqori baho berishi kabi omillar ularning maydondagi samaradorliklarini ikkinchi darajaga tushirib yubordi. Braziliyalik futbolchilarning xulq-atvorlaridan va uning ijtimoiy xavfini inobatga

olgan yevropalik jamiyatshunoslar futbol klublarini braziliyalik futbolchilarni sotib olishda ehtiyotkorlikka chaqirmoqda. Mazkur masala Braziliyada hukumat darajasida o'rganilib, unga zamonaviy ilm ahli vakillari jalb etildi.

O'zbek futbolini rivojlantirishda bugungi kunda e'tibor qaratilishi kerak bo'lgan omillar XX asr o'zbek futbolida mavjud bo'lgan bir qator an'analarning bugungi kunda yo'qolib ketganligi va futbolchilarning maydondagi faoliyatlari yakunlanganidan keyin jamiyat hayotidan uzilib qolishlari va ularni to'plagan tajribalaridan va qobiliyatlaridan kelib chiqib faoliyatlarini samarali tashkil etish yuzasidan tavsiyalarga e'tibor qaratish lozim. Milliy futbolimizning bugungi kundagi darajasi, o'zbek futbolchilarining horijiy mamlakatlarda milliy futbolimizni targ'ib etishi va uning samaradorligini oshirish yuzasidan maxsus dasturlar ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. "Bugungi kunda Angliya, Ispaniya va Italiya chempionatlari klublarida katta mablag'larni maqsadli yo'naltirish va jamiyat rivojiga ijobiy ta'sir o'tkazish maqsadida "Hayot darslari" tashkil etilgan".

Globallashuv jarayonida ma'lumotlar oqimining ko'pligi, integratsiyaning kuchliligi va urbanizatsiyaning tezlashishi insoniyatdan kuchli ko'nikmalarning shakllanishini talab etmoqda. Insonning jamiyatga singib borishi uzoq davom etadigan protsess hisoblanadi. Mazkur jarayonda shaxsning aqliy imkoniyatlari, ahloq sifatleri katta o'rinni egallaydi. Jamiyatda shaxsning ma'naviy qadriyatlar asosida rivojlangan intellektual qobiliyati uning muhim jihati. Kundalik hayotimiz davomida shaxslarning aqliy qobiliyatlari haqida fikr bildirganimizda ularning asosiy individual farqlari sifatida asosan onglari namoyon bo'ladi.

Shaxsning aqliy qobiliyati tushunchasi bugungi kunda ham ilmiy jamoatchilik tomonidan keng muhokama maydoniga aylangan mavzulardan biridir. Intellekt shaxsda individual shakllanadimi (kognitiv funksiyalar asosida) yoki jamoaviy intellektual shaxs shakllanishida muhimmi kabi savollar tortishuvlarning asosiy markazi hisoblanadi. Shu o'rinda individual intellekt tushunchasi mavjudki, uning funksiyasi asosida intellekt yaratiladi. Shaxsdagi intellektni aniqlash tizimi XIX asr oxiri va XX asr boshlaridan boshlab amalga oshirila boshlangan. Asosan bu tajriba ob'yekti bolalar hisoblanib ulardagi individual xususiyatlar, xronologik yosh va "intellektual yosh" o'lchov sifatida olingan. Intellektual yoshni aniqlashda bolaning turli vazifalarni bajara olish qobiliyatidan kelib chiqib baholangan. Keyinchalik kattalardagi intellekt darajasini ham aniqlovchi "Wexler" tajribalari paydo bo'ldi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Futbolning rivojlanishi bugungi kunda aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib etishda asosiy o'rinni egallaydi. Bolalar o'rtasida futbol o'yinlarining tashkil etilishi ularning jismoniy rivojlanishi va o'ziga bo'lgan ishonchni ortishida

ahamiyatli hisoblanadi. Bugungi kunda kompyuter o'yinlarining keng tarqalganligi va internetdan foydalanishning ommalashuvi qaysidir ma'noda insonlarda kamharakatlilikni keltirib chiqarmoqda. Kamharakatlilik ortidan bolalar va kattalarda turli kasalliklar paydo bo'lish ehtimoli ortib bormoqda. Futbol sport turi aholining deyarli barcha qatlamlari orasida salomatlikni targ'ib etuvchi birinchi raqamli sport turi hisoblanadi.

Bugungi kun futbolchilari bir paytning o'zida bir nechta vazifalarni bajarish rejimi va kuchli ruhiy bosim ostida to'g'ri qaror qabul qilishlari ularning ilimga asoslangan zamonaviy dasturlarda o'z qobiliyatlarini namoyish etganliklarini ko'rsatadi. O'yin davomida murabbiy tomonidan turli, bir-birini takrorlamaydigan geometrik chizmalarni ko'rsatib shu chizmalar asosida harakatlanishlarini talab qiladi. Aynan mana shunday paytda futbolchidan geometrik chizmalarni tezda tushunib olib, maydonda chizmalarga asoslangan samarali harakatlarni amalga oshirish muhim hisoblanadi.

Monreal (Kanada) universiteti professori Joselin Fober jamiyatdagi ijro etish funksiyalari o'yin intellekti bilan o'zaro bog'liqligi, professional futbolchilar tez harakatlanishi va kuchli jismoniy yuklamalarga qaramay, qisqa vaqt mobaynida bir nechta ma'lumotlarni qayta ishlay olishlarini ta'kidlagan.

"Jamiyatning turli sohalarida faoliyat boshlayotgan va katta maqsadlar sari intilayotgan insonlarning muvaffaqiyat tomon dadil borishlarida asosiy omil shaxsning o'ziga bo'lgan ishonchining qay darajada ekanligi hal qiluvchi ahamiyatga ega" [8]. Jahon miqyosida eng ko'p muvaffaqiyatga erishgan Germaniya futbolidan juda ko'plab mamlakatlar andoza olishga intilganlar. Nemis futboli dasturi asosida o'zlarining milliy dasturlarini ishlab chiqib muvaffaqiyatga erishgan davlatlar ham ko'pchilikni tashkil etadi. "Nemis futbolining yuqori samaradorligida juda ko'p jihatlarni sanab o'tish mumkin. Lekin, akademiyalarimizda yosh futbolchilarni o'ziga bo'lgan ishonchni orttirish yo'lida ishlab chiqqan dasturlarimiz har doim o'zini oqlab kelmoqda" [9].

Ko'pchilik mutaxassislar nemis futboli muvaffaqiyatlarida asosiy omil mentalitet ekanini e'tirof etadilar. Mentalitetning ma'lum darajadagi roli mavjudligini rad etmagan holda aytish mumkinki, muvaffaqiyatdagi asosiy o'rinni ishlab chiqilgan to'g'ri dastur va uzoq yillik bir-birini to'ldiruvchi tizim egallaydi. Agar barcha g'alabalar ostida millat omili bo'lsa, deyarli hech qanday muvaffaqiyat qayd etmagan Avstriya terma jamoasi asosini ham nemis millati vakillari tashkil etishini alohida qayd etish mumkin. Zamonaviy futbolning deyarli barcha davlatlarda ilm-fan bilan integratsiyalashuvi davom etmoqda. Shuning uchun xorijda faoliyat olib boruvchi futbolchilarning yetishtirish tizimi va ularning milliy

futbol targ'ibotidagi rolini oshirish, futbolchilarda xorijiy tillarni o'rganishning samarali tizimini joriy etish davr talabiga aylanib bormoqda.

Hozirda "zamonaviy futbolning tarbiyaviy ahamiyati" iborasiga ko'p bora duch kelinadi. Zamonaviy o'zbek futboli jamiyatning ma'naviy-tarbiyaviy dunyosiga qanday ta'sir etayotganligi va undagi salohiyatning yuqoriligi hamda jamiyatda uning samaradorligidagi kamchiliklarning sabablari, faoliyati yakunlangan futbolchilarning jamiyat hayotidagi rolining pastligi va ularning rolini oshirish bo'yicha maxsus dasturlar ishlab chiqishni yo'lga qo'yish zarur.

Xulosa

Intellectual futbol har bir futbolchining jamoa tarkibida ishlash salohiyati va murabbiy tomonidan berilgan topshiriqlarni mohiyatan anglay olish qobiliyatidir. Futbolchilar maydonda shunchaki to'p tepish bilan cheklanmasdan ilm-fan va sportning integratsiyalashuvini amalda namoyish etadi.

XX asr o'rtalaridan boshlab futbol O'zbekistonda birinchi raqamli sport turiga aylandi. Dastavval "Paxtakor" jamoasi mamlakatning bosh jamoasi sifatida faoliyat yuritgan. Mamlakatdagi futbol kayfiyati va rivoji "Paxtakor" jamoasining natijalari orqali talqin qilingan. Turli millat vakillarining bir jamoa va bir maqsad ostida birlashib harakatlanishi jamoaviy sport turlari ichida birinchilardan bo'lib futbolda etnoijtimoiy munosabatlarning shakllanishi hamda rivojlanishiga zamin yaratdi. "Paxtakor" jamoasining samarali faoliyat yuritgan 1978 – 1979 yillardagi tarkibiga nazar tashlansa, rus, ukrain, tatar va koreys millatiga mansub futbolchilar faoliyat yuritganligi ko'rinadi. Sergey Pokatilov, Sergey Strashnenko, Aleksandr Yanovskiy, Olimjon Ashirov, Sergey Bashkirov, Mixail Bondarev, Valeriy Glushakov, Gennadiy Denisov, Yuriy Zagumennix, Nikolay Kulikov, Anatoliy Mogilniy, Nizom Nortojiev, Ahmadjon Ubaydullaev, Vyacheslav Shirin, Vladimir Enns, Ravil Agishev, Vyacheslav Kim, Vladimir Sabirov, Rinat Fayruzov, Turaberdi Shaymardanov, Andrey Yakubik.